


TARIX

1. XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligi shimolda qaysi hudud bilan chegaradosh bo'lgan?
A) *Buxoro amirligi* B) *Eron*
C) *Kaspiy dengizi*
D) *Qozoq juzlari yerlari bilan*
2. Ikkinchi jahon urushi yillarida Yugoslaviyada ozodlik harakatiga boshchilik qilgan shaxsni belgilang.
A) *G.K.Jukov* B) *Sh.de Goll* C) *I.B.Tito*
D) *F.D.Ruzvelt*
3. 1637-yilda Manjurlar bilan Koreya o'rtasida imzolangan shartnomaga ko'ra Koreys hukumati qanday majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan?
1) Min sulolasi bilan har qanday munosabatlarni to'xtatish va manjurlarga Xitoyga qarshi urushga yordam berish; 2) har yili o'lpon to'lab turish; 3) mamlakat poytaxtini boshqa shaharga ko'chirish; 4) Yaponiya bilan savdo-sotiq aloqalarini to'xtatish
A) 2, 4 B) 3, 4 C) 1, 2 D) 1, 3
4. Radioga asos solinishi quyidagi qaysi olim nomi bilan bog'liq?
A) *Z.Freyd* B) *F.Nitsshe* C) *L.Paster*
D) *A.Popov*
5. Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni aniqlang.
1) Chustni bo'ysundirdi; 2) Qo'qon shahrini obod qilib, uni xonlik poytaxtiga aylantirdi; 3) Namangan hokimi Irisqulibiy bilan sulh shartnomasini imzoladi; 4) o'g'li Olimbekni To'raqo'rg'onga hokim etib tayinladi; 5) "navkariya" deb atalgan muntazam qo'shin tuzdi.
A) 2, 4, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 5
6. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakati markazlari bo'lgan shaharlarni aniqlang.
1) Xo'jayli; 2) Qo'qon; 3) Xiva; 4) Qarshi
A) 2, 3 B) 2, 4 C) 1, 3 D) 1, 4
7. Tarixiy-mantiqiy bog'liqlik (ketma-ketlik, moslik) to'g'ri berilgan javobni toping.
A) *Zahiriddin Muhammad Bobur* – *Mo'g'uliston hukmdori* – *poytaxti Tabriz*
B) *Mironshoh* – *Movarounnahr hukmdori* – *poytaxti Toshkent*
C) *Mirzo Ulug'bek* – *Eron hukmdori* – *poytaxti Bag'dod*
D) *Shohrux Mirzo* – *Xuroson hukmdori* – *poytaxti Hirot*
8. Quyidagi qaysi ma'lumotlar podsho Filipp II haqida emas?
1) Qadimgi Makedoniya podshosi edi;
2) Hindistonda yunon-makedon qo'shinlariga qarshi kurashga sardorlik qildi; 3) mil. avv. IV asrda forslarga qarshi yunonlar bilan ittifoq tuzdi; 4) Qadimgi Fors davlatining Ahamoniylar sulolasidan bo'lgan oxirgi shohining qo'shinlarini tor-mor keltirdi
A) 2, 4 B) 1, 3 C) 1, 4 D) 2, 3
9. AQSh qaysi davlatning Panama kanalini qurayotgan va kasodga uchragan aksiyadorlik jamiyatining barcha aksiyalarini arzon-garovga sotib olgan?
A) *Kolumbiya* B) *Germaniya* C) *Fransiya*
D) *Angliya*
10. Quyida berilgan ma'lumotlar qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniqlang.
"U o'z lashkarlari bilan akasi Jaloliddin qarorgohini tark etdi. Akasiga hasadi qo'zg'ab, o'zi mustaqil davlat barpo etish va Jaloliddin kabi shuhrat qozonishni istadi. U Kirmon hokimi tomonidan qo'lga olinib, qatl etildi".
A) *Alouddin Qayqubod*
B) *G'iyosiddin Pirshoh* C) *Sharofulmulk*
D) *Ibn al-Asir*
11. Qadimgi Xett podsholigi hozirgi qaysi davlat hududida vujudga kelgan?
A) *Eron* B) *Pokiston* C) *Suriya*
D) *Turkiya*
12. Quyidagilardan Buyuk Britaniyaga qarashli "oq koloniya"ni toping.
A) *Afg'oniston* B) *Hindiston*
C) *Yangi Zelandiya* D) *Seylon oroli*


13. Nuqtalar o'rniga mos keladigan javobni toping.
O'rta asrlarda Xitoy:
1) Li Yuan – Tan sulolasi; 2) Chju Yuan-Chjan – Min sulolasi; 3) Xubilay – ...
A) *Xan sulolasi* B) *Sin(Chin) sulolasi*
C) *Sun sulolasi* D) *Yuan sulolasi*
14. 2017-yil iyunda Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida ilk marta qatnashgan Shanxay Hamkorlik Tashkilotining sammiti qaysi shaharda bo'lib o'tgan?
A) *Ostona* B) *Dushanbe* C) *Ashxobod*
D) *Bishkek*
15. "Husni dil", "Qushlar munozarasi" asarlari muallifini toping.
A) *Sayido Nasafiy* B) *Mujrim Obid*
C) *Mirzo Abdulqodir Bedil*
D) *Muhammadniyoz Nishotiy*
16. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyer-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping.
- XIX asrning ikkinchi yarmi**
- Buyuk Britaniya
Fransiya
- 
- a) Ikkinchi afyun urushida ishtirok etdi;
b) Ikkinchi parlament islohoti o'tkazildi;
c) Misrni bosib oldi; d) Uchinchi Respublika konstitutsiyasi qabul qilindi; e) Shimoliy Afrikadagi Tunisni bosib oldi; f) Ispaniya bilan tinchlik shartnomasini imzoladi.
A) *I-c, f; II-b, e; III-a* B) *I-a, e; II-c, d; III-f*
C) *I-b, c; II-d, e; III-a* D) *I-b, d; II-a, e; III-f*
17. V-VI asrlarda "Ipak yo'li" savdosida sasoniy savdogarlari bilan raqobatda asosan kimlar vositachi bo'lgan?
A) *kidariylar* B) *turkmanlar* C) *sug'diylar*
D) *xorazmiylar*
18. Quyidagilardan I jahon urushi vaqtida Usmonli davlati harbiy vaziri va bosh qo'mondoni bo'lgan shaxsni aniqlang.
A) *Tal'at* B) *Niyozbey* C) *Jamol*
D) *Anvar poshsho*

19. AQSh Prezidenti Franklin Ruzvelt boshqaruv davri bilan bog'liq to'g'ri berilgan ma'lumotlarni aniqlang.
1) Sovet Ittifoqi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi; 2) Neytralitet haqida qonun qabul qilindi; 3) amerikacha individualizm va liberalizm tamoyillarini himoya qilib, hech qanday ijtimoiy choralar ko'rishga rozi bo'lmadi; 4) urushayotgan davlatlarga qurol yetkazib berish va kredit ajratishni taqiqlash to'g'risida qonun qabul qilindi; 5) Buyuk Britaniya bilan urush payti va undan keyingi hamkorlik tamoyillari to'g'risida deklaratsiya – Atlantik xartiya imzolandi; 6) uning monopoliyalarga qarshi kurash siyosati "Adolatli yo'l" deb nom oldi; 7) Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaharlariga atom bombalari tashlandi
A) 1, 2, 4, 5 B) 2, 3, 5, 7 C) 1, 3, 5, 6
D) 2, 4, 6, 7
20. 1912-yilda tashkil topgan "Yosh Jazoir" partiyasi mustamlaka hukumat oldiga qanday talablarni qo'ygan edi?
1) sud ishlarida jazoirliklar uchun "mahalliy kodeks" nomli kamsituvchi tartibni bekor qilish;
2) chet elliklar bilan tuziladigan iqtisodiy bitimlarga Jazoirni roziligini olish; 3) soliq to'lashda jazoirliklar va yevropaliklarni tenglashtirish; 4) xalq maorifini kengaytirish; 5) jamiyatlar tuzish, majlislar o'tkazishga ruxsat berish; 6) saylanadigan lavozimlarda arablar uchun o'rinlarni ko'paytirish; 7) qonun oldida hammaning tengligi, shaxs va mulk daxlsizligini berish
A) 2, 4, 5, 7 B) 1, 2, 4, 7 C) 2, 3, 5, 6
D) 1, 3, 4, 6
21. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida asosiy savdo yo'llari qayerga ko'chgan?
A) *O'rtayer dengiziga* B) *Atlantika okeaniga*
C) *Arabiston dengiziga* D) *Tinch okeaniga*
22. Qadimgi Yunonistonning quyosh xudosini aniqlang.
A) *Apollon* B) *Gelios* C) *Gefest*
D) *Afina*
23. Quyidagilarni tahlil qilib, nuqtalar o'rniga mantiqan mos keluvchi javobni toping.
IIk o'rta asrlarda Vizantiya:
1) Falastin; 2) Bolqon yarimoroli; 3) Kichik Osiyo; 4) ...
A) *Hindiston* B) *Britaniya* C) *Kavkaz*
D) *Daniya*

24. 1929-yil yanvarda AQSh prezidentligiga saylangan shaxsni toping.

- A) Gerbert Guver B) Jorj Klemanso
C) Vudro Vilson D) Franklin Ruzvelt

25. Quyidagi grafikda qaysi raqam ostida tarixiy asar va uning muallifi bir-biriga muvofiq keladi?



- A) 3, 5 B) 2, 5 C) 4, 6 D) 1, 6


26. Quyida nomlari keltirilgan hukmdorlardan qaysi biri Qadimgi Misrni bosib olgan?

- A) Makedoniyalik Aleksandr B) Gilgamish
C) Kir II D) Ashoka

27. XX asr oxiri – XXI asr boshlarida AQShning Osiyo-Tinch okean mintaqasida o'z ta'sirini kuchaytirishga qaratilgan siyosati qaysi davlatni bu mintaqadan siqib chiqarishga qaratilgan?

- A) Koreya B) Hindiston C) Xitoy
D) Tayvan

28. Xaritada yulduzcha bilan belgilangan hudud(davlat) tarixi bilan bog'liq to'g'ri ma'lumot berilgan javobni toping.



- A) 1854-yilda AQSh bilan "Tinchlik va do'stlik" shartnomasi imzolandi.
- B) 1884-yilda Fransiya tomonidan bosib olindi.
- C) 1637-yildagi yangi shartnomaga ko'ra mamlakat qiroli o'zini manjurlarning vassali deb tan oldi.
- D) 1864-yilda chet el davlatlari ko'magida dehqonlar qo'zg'oloni bostirildi.

29. Yulduzcha bilan belgilangan hududda (yarim orolda) qadimgi davrda vujudga kelgan davlatlarni toping.



- A) Koshala, Malla
- B) Xett, Mitanni
- C) Urartu, Ossuriya
- D) Parxe, Koguryo

30. Quyidagi jadvalda voqea va uning natijasi o'zaro mos berilgan qatorlarni aniqlang.

№	Voqea	Natija
1.	1938 yilgi Myunxen kelishuvi	Chexoslovakiyaning Sudet viloyatini Germaniyaga berilishi
2.	2003-yilgi «Atirgullar inqilobi»	Gruziyada «yangi demokratlar»ning hokimiyatga kelishi
3.	Xitoyda 1351-yil boshlangan dehqonlar qo'zg'oloni	Yuan sulolasiga asos solinishi
4.	XVII asrdagi Angliya burjua inqilobi	Angliya qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlarning tez rivojlanishi va sanoat to'ntarishining boshlanishi
5.	Giksoslarning tor-mor etilishi va fir'avn Yaxmos tomonidan ularning Misrdan quvib chiqilishi	Misrda O'rta podsholikka asos solinishi

A) 1, 2, 4 B) 2, 4, 5 C) 1, 3, 5 D) 2, 3, 4